

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ASARLARINI BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATIGA OID IJTIMOY NAZARIYA QARASHLARI

Xo'janazarova Xurshida Zokir qizi

**Samarqand davlat universitetininig Denov
tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578942>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining davlat va uning boshqaruviga oid qarashlari bayon etiladi. Boshqaruvda ilm-fan ziyolilarining, el tanigan iqtidor sohiblarining xizmati xaqida alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlari: Sharq mutafakkirlari, boshqaruv, davlat, rahbar, adolat mezoni, ilm ma'rifat, kengash, adolat.

Boshqaruvni shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish tizimi va amaliyotini ya-ratgan taniqli siymolari ana shu xalqning qadim tarixidan darak beradi. Boshqaruvda ilm-fan ziyolilarining, el tanigan iqtidor sohiblarining xizmati ham alohida ta'kid-langani. Masalan, Temuriy shahzodaning zamondoshi va vaziri Alisher Navoiy, jasur sarkarda Jaloliddin Manguberdi bilan shayx Najmiddin Kubro faoliyatlari bunga mi-sol bo'la oladi. Xalqning boshqaruv tizimini shakllantirish, takomillashtirish tizimi va amaliyotini yaratgan yorqin siymolardan biri- Amir Temur (1336-1405) qoldir-gan bebaxo ilmiy, ma'naviy meros musulmon sharqining bebaxo xazinasidir. Sohibqiron Amir Temur siyosiy ta'limotining muhim jihati jamiyatni boshqarishda qonunning ustuvorligi, qonunchilik masalasidir. "Temur tuzuklari" o'z davrining bosh qomusi bo'lganini tarix tasdiqlaydi, o'sha davrning barcha ijtimoiy jihatlarini o'zida to'laqonli ifodalashi, xalqparvarligi, saltanatni xar jihatdan boshqaruvining adolatli tarzda yo'lga qo'yilishi bois butun dunyoga timsol bo'lgan. Jamiyatda bosh-qaruvning katta muammolaridan tortib, eng mayda taraflarigacha tahlil qilingan, qiyoslangan mazkur asar mana asrlardan asrlarga zeb berib ta'riflanadi, mana men degan mataxassislarning e'tirofiga sazavor bo'laveradi. Sohibquronning mamlakatda qat'iy tartib o'rnatishga erishganini, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarini esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog'lab tuzganini ta'kidlab o'tish zarur. Bu haqda " Temur Tuzuklari " da quyidagi so'zlar bitilgan; " Saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim ".

Amir Temur uchun 3 asosiy fazilat davlat boshqaruvining mezoni bo'lib kelgan. Davlatning muhrida ham belgilangan adolat mezoni Sohibqironning umr mazmuniga aylangani haqiqat. Yaxshi bilamizki, mohir rahbar va mashhur sarkarda davlatni boshqarishda 4 narsaga amal qilgan;

1. Kengash
2. Maslahat
3. Tadbirkorlik va hushyorlik
4. Ehtiyotkorlik

Olimlarning fikricha Amir Temur davlatining yuksalishida u o'tkazgan kengashlar muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday ekan boshqaruv faoliyatida xodimlarga nisbatan adolatli va ularning fikrlari bilan qiziqqan holda boshqarish, tashkilot hamda jamoaning manfaatlari uchun ham foydalidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va hozirgi kundagi davlatimiz

rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z boshqaruv faoliyatlarida Amir Temurning "Temur tuzuklari" asaridan foydalanib kelgan. Amir Temur odilona siyosati va qonunlarning barcha sohalarida adolatli amalga oshirilishi shunday xayratomus natijalar berdiki, mo'gullar bir yuz ellik yil davomida vayronaga aylantirgan Turon yurti Sohibqiron xukmronligi zamoniga kelib, qisqa vaqt oralig'ida jahonning barcha sohalarida eng qudratli, iqtisodiy barq urgan, madaniy xayoti yuksalgan, bunyodkorligi bemisl rivojlangan mamlakatga aylanadi. O'rta asrlar davridayoq Amir Temur xozirgi davr iborasi bilan aytganda erkin fuqaroliq jamiyatiga asos soldi. Bu Sohibqiron "Tuzuklari" amaldagi naqadar makammal qonunlar majmuasi ekanligining isboti bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni O'zbekiston ziyolilari bilan uchrashuvda "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman nasib etsa, havas qilsa arziydigan kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi" deb ta'kidlangan edi. Shu o'rinda biz havas qilsa arziydigan yana bir ajdodimiz, davlat arbobi, mutafakkir – Abu Nasr Farobiydir.

Abu Nasr Farobiy har sohada ilg'or O'rta Osiyoning ulug' turkiy mutafakkiri va qomusiy olimi bo'lgan. Farobiy davlatni boshqarishda, qonunlarga amal qilishda, kishilararo munosabatlarda odob-axloq va xulq qoidalariga rioya qilishda, ta'lim-tarbiyada aql hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak, deb hisoblaydi. Farobiy jamiyat rivojida madaniyatning nechog'li o'rin tutushini, "Fozil odamlar shahri", "Kitobli madaniyat al-fozila vaal-madanatal-mubaddalavaal-madanatazzola", "Kalom fi almillatal fiqh al-madaniy" (Xalq va shaharlarni boshqarish huquqi haqida so'z) singari kitoblarida to'laqonli asoslab beradi. Shundan bilishimiz ma'lumki Farobiy davlat boshqaruvida xulq, odob-axloq masalalarini birinchi o'ringa qo'ygan. Uning yetuk asarlaridan hisoblangan kitobida boshqaruv haqida ko'pgina fikrlar keltirib o'tadi. Mutafakkir asarlarida 3 mezon boshqaruv taraqqiyotining asosini, o'zagini tashkil etishi- bular fozil jamiyat (ya'ni ilm – ma'rifatli jamiyat), adolatli tuzum (ya'ni adolat va haqqoniylika asoslangan tuzum) va odil rahbar (faqat to'g'rilika va adolatni yoqlagan rahbar) faoliyati ekani haqida takror-takror ta'kidlanadi. Albatta, boshqaruv jarayonida rahbar o'z xodimlariga tayanadi, ularga ishonadi. Farobiy shaharni ijtimoiy uyushishini yetuk shakli insoniyat kamolatga erishishining zaruriy vositasi deb hisoblaydi. Butun insonlarni o'zaro hamkorlikka xalqlarni tinchlikka chaqiradi. Mutafakkir inson qadri qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. Bu kitobda rahbarga xos fazilatlar o'sha davr nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda fikrlanadi. Farobiyning jamiyatni boshqarish haqida fikr yuritib, jamiyatni boshqarish aloxida bir sa'nat, deb hisoblaydi. Abu Nasr Farobiy fozil shaharning fozil hukmdori timsolida odamlarga haqiqiy baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi va komil inson g'oyasini ilgari suruvchi buyuk allomadir.

Yana bir xazinalarimiz sirasiga Nizom-ul Mulkning "Siyosatnoma" asarini ham kiritishimiz mumkin. Saljuqiy shohlariga 30 yil halol vazirlik qilib o'z kuzatishlarini jamlab ularni umumlashtirgan holda buyuk asar yaratgan katta istedod sohibi Nizom-ul Mulk davlatni boshqarish undagi muamolarni hal qilish, qanday yo'l bilan murosaga kelish haqida ajoyib fikrlar keltirgan. "Siyosatnoma" da davlat boshqaruviga, aloqador barcha qonun qoidalar usul vositalari keltirib o'tilgan. Asarning asosiy g'oyalari xam shundan iboratki vazir Nizom-ul Mulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muravvatga, davlatni oqilona boshqarib, qattiy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, xalol va pok imonli bo'lishiga, mamlakat tinchligiga va totuvligini taminlash uchun xarakat qilishga davat etgan. "Siyosatnoma" mavzu jihatdan

keng qamrovli va sermazmun asar. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyib xamma qonun va qoidalar, usul va vositalar, qo'shin va sarbozlar, elchilarga munosabat haqida malumotlar va maslaxatlar bor. Yusuf xos Hojib (taxminan 1020-1021) – turkiy shoir, adib, mutafakkir, davlat arbobi " Qutadg'u blig " asarining muallifi. Uning hayoti xaqida birgina manbaa berguvchi asar hisoblanadi " Qutadg'u blig ". Hojibning dunyoga kelishi va ulug' bir siymo sifatida tanilishi, hayotiy va qonuniy zarurat bo'lganligi quyidagicha ifoda etiladi;

" O'sha vaqtda yagona qo'l ostida birlashgan ulkan davlatni boshqarish, hayotni to'g'ri izga solish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beruvchi donishmand kerk edi. Shunday kishi topildi. Bu Yusuf edi". Davlat va uning boshqaruviga oid masalalar Yusuf xos Hojibning ijodi ayniqsa katta o'rin tutgan. Yusuf davlat boshqaruviga va xizmatini tashkil etish turlarini tasniflaydi. Shuningdek Yusuf Xos Hojib o'z asarida ko'rsatgan barcha ishlarida tajribali, oqillik bobida ibratli, zakovatli, maorifatga tashna, adolatparvar, sadoqat kabi sifatarning sohibi bo'lishi shartligini ta'kidlaydi. Ayni paytda u jamiyatni ilmiy va madaniy salohiyatini, adolatli davlat asoslarini yaratuvchi omil deb bilgan. " Qutadg'u blig " qoraxoniylar hokimiyatining o'ziga xos nazmiy nizomnomasi bo'lib, bu razmiy-timsoliy asar yurt egalari bo'lmish hukmdorlar va katta-kichik amaldorlarga atab yozilgan va asarda ularga mamlakatni adolat bilan boshqarish, tinchlikni saqlash, zulm qilmaslik, xalqning og'irini yengil qilish, turmushini farovon aylash, iste'dod sohiblarini qo'llab-quvvatlash, huquq, burch, adolat bo'yicha maslahat va tavsiyalar berilgan.

References:

1. Amir Temur. Temur Tuzuklari. Toshkent-2020
2. Abu Nasr Farobiy." Fozil odamlar shahri " Toshkent-2016
3. Karimov I. Amir Temur haqida so'z. Toshkent-1996
4. Mirziyoyev Shavkat. Adabiyot va san'at, ma'daniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori. (2017-yil 3-avgustdagi mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi.)
5. Qodiraliyev, ATOGL (2022). RAHBARNING BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI INDIVIDUAL PIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 2 (12), 1151-1155.
6. Qodiraliyev, ATU (2022). BOSHQARUV JARAYONIDA ETKORCHILIK MAKORATLARINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 2 (11), 519-525.
7. O'G'Li, Q. A. T. (2021). HARAKATLAR STRATEGIYASI-MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG 'RIKENGLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASH ASOSI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(2), 172-178.